



**Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi**

Ona tili va adabiyoti darslarida o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish



**Nozima Nuriddinova Avazxonovna
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi**

Reja:

1. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati
2. Badiiy asarlarni tahlil qilish orqali hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish
3. Hayotiy kompetensiyalar mazmuni va XXI asr ko'nikmalari
4. Asosiy xulosalar va amaliy qo'llash tavsiyalari



Mavzuning dolzarbligi va amaliy ahamiyati

XXI asr talablari

Zamonaviy jamiyat tez o'zgarib borayotgan sharoitda o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularda mustaqil fikrlash, muammolarni yechish va muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish ta'limning asosiy vazifasiga aylanmoqda.



Kompetensiyaviy yondashuv

Dunyo miqyosida ta'lim tizimlari kompetensiyaviy yondashuvga o'tmoqda. Bu o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki uni amaliyotda qo'llay olishini ta'minlaydi.



O'zbekiston ta'lim siyosati

“O'zbekiston-2030” strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Asosiy maqsad

Ona tili va adabiyoti darslarida o'quvchilarning quyidagi hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish:

- ✓ Kommunikativ kompetensiya
- ✓ Axborot bilan ishlash kompetensiyasi
- ✓ Ijtimoiy-faol fuqarolik kompetensiyasi
- ✓ Shahsiy rivojlanish kompetensiyasi
- ✓ Tanqidiy va kreativ fikrlash



Amaliy ahamiyati:

O'qituvchilarga hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va baholash mezonlarini o'rganish imkonini beradi.



Hayotiy kompetensiya: tushuncha va mazmuni

Hayotiy kompetensiya - bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Bu tushuncha o'quvchining nafaqat bilimlarni egallashini, balki ularni amaliy hayotda qo'llay olishini ham qamrab oladi.

Tarkibiy tuzilma

Kognitiv komponent: bilimlar va tushunchalar

Motivatsion komponent: qiziqish va ehtiyoj

Faoliyat komponenti: ko'nikma va malakalar

Refleksiv komponent: o'z-o'zini baholash

Kompetensiya va malaka farqi

Malaka - bu muayyan faoliyatni bajarishning usullarini bilish va qo'llash qobiliyati.

Kompetensiya esa malakadan kengroq tushuncha bo'lib, bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarning uyg'unlashuvidir.

Asosiy xususiyatlar

Amaliy yo'naltirilganlik

Kontekstga bog'liqlik

Murakkablik va ko'p qirralilik

O'z-o'zini baholash imkoniyati

Rivojlanuvchanlik

Olimlar ta'rifi

“Kompetensiya - bu muayyan kontekstda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, tushuncha, ko'nikma, qobiliyat va ruhiyatning uyumli birligi”.- **A.V. Xutorskoy**

“Hayotiy kompetensiyalar o'quvchilarni haqiqiy hayot muammolarini hal qilishga tayyorlaydi”.- **Z. I. Kalney**

XXI ASR HAYOTIY KO'NIKMALARI

Kritik fikrlash (*Critical Thinking*). Ma'lumotni tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish.

Kreativlik (*Creativity*). Yangi g'oyalar ishlab chiqish va innovatsion yechimlar.

Kommunikatsiya (*Communication*). Samarali muloqot va fikr almashish qobiliyati.

Hamkorlik (*Collarabation*). Jamoada ishlash va hamkorlikda muammolarni yechish

Axborot savodxonligi. Axborotlarni samarali qidirish, tahlil qilish va qo'llash.

Raqamli savodxonlik. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

O'zini-o'zi boshqarish. Vaqt va o'zini-o'zi boshqarish.

Muammolarni yechish. Murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish

Ijtimoiy fuqarolik. Jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyati.

Moslashuvchalik. O'zgarishlarga moslashish va yangiliklarni o'zlashtirish



XXI asrda o'quvchilarda zarur bo'lgan ko'nikmalar



Munosabatlarni madaniyat bilan yo'lga qo'yish



Jamoadam hamkorlikda ishlash



Axborotni izlash va tahlili qilish



Ijodiy fikrlash va tasavvur qilish



Xulosa chiqarish va yechim topish



O'zini boshqarish va vaqtni to'g'ri taqsimlash



Muloqot va prezentatsiya qilish



Muammolarni hal qilish

Ona tili va adabiyot darslarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish

1.



MULOQOT MADANIYATI

Fikrni aniq va tushunarli bayon etish.

2.



HAMKORLIK VA JAMOAVIY ISH

Guruhda ishlash, fikr almashish ko'nikmalari.

3.



TANQIDIY FIKRLASH

Matnni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish.

4.



MUAMMOLARNI YECHISH

Hayotiy vaziyatlarni adabiy asarlar orqali tahlil qilish.

5.



IJODKORLIK VA INNOVATSIYA

Yangi g'oyalar, nostandart yondashuvlar.

6.



NOTIQLIK SAN'ATI

Omma oldida gapirish, ishonch hosil qilish.

7.



EMOTSIONAL INTELLEKT

His-tuyg'ularni tushunish va boshqarish.

8.



AXBOROT BILAN ISHLASH

Manbalarni topish, saralash, tahlil qilish.

9.



MOSLASHUVCHANLIK

O'zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish.

10.



MAS'ULIYAT VA ETIKA

O'z so'zi va harakati uchun javobgarlik.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish yo'llari

Og'zaki nutqni rivojlantirish yo'llari

Diaologik nutq

- ✓ Savol-javoblar
- ✓ Muhokamalar
- ✓ Fikr-almashish

Grammatik kompetensiya

- ✓ Grammatik qoidalarni qo'llash
- ✓ Gap tuzilishi va xatolarni tuzatish

Monologik nutq

- ✓ Hikoya qilish
- ✓ Bayon qilish
- Nutq aytish

Leksik kompetensiya


- ✓ Lug'at boyligini oshirish
- ✓ Sinonim va antonimlar bilan ishlash

Yozma nutqni rivojlantirish

- ✓ Insho yozish
- ✓ Kundalik yozish
- ✓ Xat yozish
- ✓ Blog yuritish
- ✓ Ijodiy yozish

Muloqotga yo'naltirilgan mashqlar

- Juftliklarda ishlash
- Kichik guruhlarda muhokama
- Rolli o'yinlar
- "Mikrofon" metodi



Adabiyot darsalarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Badiiy asarni tahlil qilish

- ✓ Asar mavzusi va g'oyasini aniqlash
- ✓ Qahramonlar harakterini tahlil qilish
- ✓ Voqealar zanjirini kuzatish
- ✓ Badiiy uslubni aniqlash

Axloqiy estetik tarbiya


Badiiy asarlar orqali o'quvchilarda:

- ✓ Mehr-muhabbat
- ✓ Vatanparvarlik
- ✓ Do'stlik
- ✓ Adolat tushunchalari shakllanadi.

Qahramonlar harakatini baholash

- ✓ Qahramon qilgan ishlarini tahlil qilish
- ✓ To'g'ri va noto'g'ri harakatlarini ajratish
- ✓ O'z hayotiga qo'llash

Misol: Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida Otabek va Kumush munosabatlari orqali o'quvchilar muhabbat, sadoqat va o'z-o'zini qo'lga olishni o'rganadilar





Ushbu videorolik orqali o'quvchilarda qanday ko'nikmalar shakllanadi?

Siz darsingizda ushbu ko'nikmani shakllantirishda qanday usullardan foydalanasiz?



“Adabiy Sud” metodi

Bu metod orqali o‘quvchilar asar qahramonlarining xatti-harakatlariga huquqiy va axloqiy baho berishni o‘rganadilar. Bu ularda **qaror qabul qilish va argumentlar bilan so‘zlash** ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Jarayon: Sinf “Sudya”, “Prokuror”, “Advokat” va “Guvohlar”ga bo‘linadi. Masalan, “O‘tkan kunlar”dagi Otabekning tutgan yo‘li yoki Kumushning sabri muhokama qilinadi.

Hayotiy ko‘nikma: To‘g‘ri va noto‘g‘rini ajratish, o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilish.



“Reklama Agentligi” (Lingvistik marketing)

O‘quvchilarga til boyligidan foydalanib, biror mahsulotni sotish yoki ijtimoiy loyihani targ‘ib qilish vazifasi beriladi.

Jarayon: O‘quvchilar guruhlariga bo‘linib, ona tili qoidalariga (sifatlar, undovlar, ritorik so‘roqlar) amal qilgan holda qiziqarli shiorlar va matnlar yozishadi.

Hayotiy ko‘nikma: Nutq madaniyati, ishontirish san‘ati va kreativlik.



“Muallifga xat” (Empatiya mashqi)

O‘quvchi asar yozilgan davrga “sayohat qiladi” va qahramonga yoki yozuvchiga bugungi kun nuqtayi nazaridan maslahat berib xat yozadi.

Jarayon: Masalan, “Zaynab va Omon” dostonidagi qahramonlarga hozirgi zamon imkoniyatlaridan kelib chiqib yechimlar taklif qilinadi.

Hayotiy ko‘nikma: **Empatiya** (o‘zgalarni tushunish), tahliliy fikrlash va yozma muloqot.



“6 ta fikrlash qalpog‘i” (Edvard de Bono metodi)

Badiiy asar tahlilida yoki tilga oid muammoni hal qilishda o‘quvchilar turli rangdagi “qalpoqlar”ni kiyib (obrazli tarzda), masalaga har xil tomondan qarashadi.

- **Oq qalpoq:** Faqat faktlar.
- **Qizil qalpoq:** Hissiyotlar.
- **Qora qalpoq:** Kamchiliklar va xavflar.
- **Sariq qalpoq:** Foydali jihatlar.
- **Yashil qalpoq:** Yangi g‘oyalar.
- **Ko‘k qalpoq:** Xulosa.
- **Hayotiy ko‘nikma:** Tahliliy va tizimli fikrlash.



“Nutqiy vaziyatlar” (Ssenariy o‘yini)

O‘quvchilarga hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan real vaziyatlar beriladi va ular bu vaziyatdan til imkoniyatlari orqali chiqib ketishlari kerak.

Vaziyatlar:

1. “Siz ishga kirish uchun suhbatdasiz, o‘zingizni tanishtiring”.
2. “Do‘stingiz bilan bahslashib qoldingiz, uni xafa qilmay qanday munosabatga kirishasiz?”.
3. “Jamoat joyida navbat buzgan odamga madaniyatli tarzda e’tiroz bildiring”.

Hayotiy ko‘nikma: Muloqotga kirishuvchanlik, konfliktlarni hal qilish.



Yakuniy interaktiv refleksiya

- Qaysi metod real hayotga yaqin?
- Qaysi biri ko'proq emotsional ta'sir ko'rsatadi?
- Qaysi kompetensiya sizning darsingizda sust?



Xulosa

Bugungi kun ta'limining bosh maqsadi — o'quvchining olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishidir. Ona tili darslarida **kommunikativ savodxonlik**, adabiyot darslarida esa **ijtimoiy-ma'naviy moslashuvchanlik** markaziy o'ringa chiqadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ona tili va adabiyot darslari o'quvchiga faqat “nima?” degan savolga javob bermasligi kerak. U o'quvchiga **“Qanday?”** (qanday muloqot qilish, qanday qaror qabul qilish, qanday qilib shaxs bo'lish) degan savollarga javob topishda yordam berishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuv — bu darsni hayot bilan bog'laydigan ko'prikdir.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

